

ONA TILI TA'LIMINI BIOLOGIYA, RASM, TABIATSHUNOSLIK VA
GEOGRAFIYA FANLARI BILAN BOG'LASH USULLARI

Namangan davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich

Asqaraliyeva Dilshoda Xojiakbar-
qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola til ta'limini turli fanlar, jumladan: boilogiya, rasm, tabiatshunoslik, geografiya bilan bog'liq holda turli metodlardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Bu tartibda dars o'tish o'quvchi ongida mavzuni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: biologiya, tabiatshunoslik, rasm, geografiya,klaster, noan'anaviy dars o'tish "tarmoqlar" metodi.

Annotation: This article examines the use of various methods in language education in relation to different subjects, including biology, drawing, environmental studies, and geography. This approach helps students better understand the topic by teaching lessons in an integrated manner.

Keywords: biology, environmental studies, drawing, geography, cluster, non-traditional teaching, "branches" method.

Mavzularning xususiyatiga qarab, til ta'limini qator fanlarga bog'lab berish imkoniyati kattadir.

Quyida ona tili darslarida fanlararo aloqadorlik tamoyillariga asoslanilgan va rasm darsiga bog'langan bir soatlik dars namunasini keltiramiz.

Mavzu: Adabiy til uslublari

Dars shiori: «Fan nima bo'lganini tushuntiradi, adabiyot qanday bo'lganini tasvirlaydi». **Dars maqsadi:**

1. Ta'limiy: O'quvchilarga adabiy til uslublari va ularni bir biridan farqlovchi xususiyatlarini tushuntirish, mavzuni o'rganish jarayonida fanlararo bog'lanishni tashkil etish;

2. Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g`oyalariga sodiqlik, ona tilimizga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash;

3. Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning nutq madaniyatini o`stirish, mustaqil fikr yuritish, mantiqiy mushohada qilish va xulosa chiqarishga o`rgatish.

Dars turi: amaliy-ijodiy mashg`ulot. Fanlararo integratsiya (Binar uslubi). Qiyoslash.

Dars uslubi: Noan`anaviy dars, «Tarmoqlar» (Klaster texnologiyasini qo`llash). Kichik guruhlarda ishlash. Venn diafamma.

**Darsning ko`rgazmaliligi:** JAsranovning «Ona» asari, R.Mirzaevning «O`zbek sanami» asari, «Bog`og sharbat» mahsulotlaridan namunalar, anketa savollari.

Darsning tarkibiy tuzilishi (rejasi)

1- Tashkiliy qism, 2 daqiqa.

2. O`tilgan mavzuni takrorlash, Venn diagrammasi bilan ishlash, 10

3. Kichik guruhlarda ishlash (tarmoqlar), 20daqiqa.

4. Dars shiorini sharhlash: Aqliy hujum, 3 daqiqa.

5. O`quvchilar bilimini baholash, 3 daqiqa.

6. Darsni xulosalash, 5 daqiqa.

7. Uyga vazifa, 2 daqiqa.

O`quvchilarga o`tilgan mavzu eslatilib, uyga berilgan topshiriq (adabiy nutq uslublari haqidagi ma`lumotlarni to`plab kelish) taxlil qilinadi. Ularning ma`lumotlaridan foydalangan holda uslublarnish bir-biridan farqlanuvchi jihatlari Venn diafammada tasvirlanadi.

Darsning keyingi qismi «Tarmoqlar texnologiyasi» asosida tashkil etiladi.

«*Suratlar tili*» rukni ostida o`quvchilar e`tiboriga tasviriy san`atning noyob namunalaridan havola etiladi. Bu erda dars rasm fani bilan bog`lab olib boriladi.

Sinf jamoasi 5 guruhga bo`linib, har bir guruhga alohida mavzudagi rasmlar, shu mavzuda matn yaratish bo`yicha topshiriqlar beriladi:

1-guruh. J.Asranovning «Ona» asaridagi keksa ayolning qarashlari, nigohidan kelib chiqib, uning xayolidan kechayotgan o`y-fikrlarni suratdagi timsol tilidan hikoya qilib, matn yaratish;

2-guruh. R.Mirzaevning «O`zbek sanami» asaridagi yosh onaning farzandiga bo`lgan cheksiz muhabbatini his qilgan holda uning tilida onalik mehriga yo`g`rilgan his-tuyg`ularni bayon qilish va matn yaratish.

3-guruh. Bu guruhga ijodiy ish bilan band bo`lgan sinfdoshlarning va familiyalari, nechanchi sinfda va qanday o`qishlari, katta bo`lganda kim bo`lmoqchi ekanliklari, dars paytida o`zlarini tutishlari, qarashlari, shug`ullanayotgan ishlaridan ko`ngillari to`lgan-to`lmaganligini tasvirlab, ijodiy matn yaratish topshiriladi. O`zgalar his-tuyg`usini tushunish - komil insonning asosiy xislati ekanligi ta`kndlanadi. Bu erda ona tili fanining adabiyot bilan bog`lanishi aks etadi.

4-guruhga uy parrandalaridan xo`rozning rasmi berilib, biologiya faniga oid matn yaratish (xo`rozning parrandalarning qaysi turiga kirishi, yashash joyi, qanday boqilishi, necha kilogrammgacha tosh bosishi, o`rtacha necha yil yashashi... v.h.) topshiriladi.

5-guruhga-esa tabiat ko`rinishlari tasvirlangan rasm berilib, unga ijodiy tasvirlash asosida kichik matn yaratish topshiriladi. Bu topshirikda, ona tili fanining biologiya, tabiatshunoslik fanlari aloqasi ko`rinadi.

Sinf o`quvchilariga oldindan anketalar tarqatilib, to`ldirib olinadi: Anketa

1. Ism va familiyasi, tug`ilgan yili.
2. O`qish va yashash joyi.
3. Kelajakda egallamoqchi bo`lgan kasbi.
4. Shu kasbdan ko`zlagan maqsadi va erishmoqchi bo`lgan yutuqlari.

Anketa 6-guruh o`quvchilariga tarqatiladi. Ularga «Bog`ot sharbat» maxsulotlaridan namunalar berilib, shu mahsulotlar haqida reklama matnlari yaratish topshiriladi.

7-guruh o`quvchilariga 6-guruxdagi o`rtoqlarining anketa javoblariga asoslanib, o`rtog`ining kelajakdagi ilmiy-ijodiy ish faoliyati, ishlab chiqarish korxonasi yoki tayyor mahsuloti haqida tavsifiy - biografik reklama matni yozish topshiriladi.

Guruhlarning bajargan ishlari, ilmiy-o`quv faoliyati birin-ketin namoyish qilinadi. Taqdimot tugagach, guruh bilan savol-javoblar vaqtida yutuq va kamchiliklar talabalar tomonidan tahlil qilinadi.

O`qituvchi tomonidan dars shiori, undan ko`zlangan maqsad sharxlanib, guruh a`zolari erishgan **natijalar** - egallangan BKM (bilim, ko`nikma va malaka)larni amaliy qo`llash darajalari qayd qilinib, ishlar baholanadi.

Dars xulosalanadi.

Uyga vazifa: Litsey hayoti haqida gazeta maqolasi tayyorlab kelish.

Ma`lumki, ekologiya masalasi shu kunining dolzarb vazifasiga aylanib qoldi.

Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlar tabiat boyliklarini tejab –tergashga, tabiatni muxofaza qilishga o`rgatila boriladi. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy “Bolalarga jonim fido” asarida “Men bolalar “Alifbe” ni ochib, birinchi so`zini hijjalab o`qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob–tabiat kitobini mutoala etishlarini istardim” deb ta`kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Tabiatdagi jonli mavjudotlar bolalar xayotida eng sevimli va qiziqarlidir. Bolalarga nazariy jihatdan tushuntirib o`rgatishdan ko`ra uni amalda qo`llab, ko`z bilan ko`rib, qo`l bilan ushlab, imkon darajasida shu voqealar jarayonida ishtirok etsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Jumladan, gullarni toza saqlash, ularning chang–g`ubordan tozalash, suv sepish, daraxtlarni rezina uchaklarda sug`orish, barglariga suv sepish, qurigan shoxlarini va barglarini olib tashlashni balalarning o`ziga o`rgatish kerak.

Ariq va anxorlarda oqayotgan suvga iflos narsalarni tashlamaslik, ozodalikni saqlash kabi holatlarni bolalar tarbiyasiga kiritib borish lozim.

Respublikasiz mustaqillikka erishgandan so`ng bu diyorni obod etish, uni ng atrof –muhitini toza saqlash har bir fuqaroning insoniy burchiga aylandi. Obodonchilik va

orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik har bir inson uchun ekologik ma'naviy mezondir.

Mustaqilligimizni mustahkamlayligan, mamlakatimiz obro' – e'tiborini jahonga olib chiqadigan farzandlarimiz ekologik tarbiya ishlari jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- Tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;
- Tabiat boyliklaridan tejab –tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- Atrof –muhitni ifloslanishlaridan saqlash;
- Tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash bolalarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrab –avaylashga olib keladi. Tabiatga muhabbatni va unga ehtiyotkorlik xissini tarbiyalash sohasida ahloqiy belgilarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tilni o'rganishda boshqa fanlarning turli xil metodlaridan, yutuqlaridan foydalanib, o'zbek tili yoki adabiyotni mana shu fanlarga bog'lab o'tish o'quvchilar bilim saviyasining o'sishida juda katta ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek tili yoki adabiyotni matematika, mantiq, ekologiya, chizmachilik, geografiya, chet tili va boshqa bir qator fanlar bilan bog'lash imkoniyatlari mavjud

O'zbek tili mantiq fani bilan uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog'lanadi. Mantiq o'zbek tili grammatika bo'limi bilan bevosita munosabatdadir. Masalan, 6-7 sinflarda so'z turkumlari o'tib bo'linganidan so'ng o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun bir necha savollardan foydalanish mumkin.

Masalan,

1. Qaysi so'z turkum turlanmaydi, tuslanadi?
2. Old qo'shimchalarga qaysi so'z turkumi ega?
3. Zamon kategoriyasi qaysi turkumga tegishli?
4. Qaysi so'z turkum yasalmaydi?

Mantiq bilan mavzuni bog'lab o'tish o'quvchilarning yodda saqlash qobiliyatini o'stiradi. Yoki o'zbek tilidagi ayrim mavzularni o'tishda chizmachilikka bog'lash. Masalan, unli va undoshlarni tasnif qilishda, aniqlashda.

Bundan tashqari o'zbek tili geografiya bilan uzviy aloqadadir. Chunki davrlar o'tishi bilan ma'lum bir tilda so'zlashuvchi etnik guruhlar turli joylarga tarqalib, o'troqlashadilar. Akademik litseyning 1-bosqich talabalari uchun hozirgi o'zbek tilida tuzilgan ish reja va darsliklarda "Adabiy til va umumxalq tili", "Hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari" deb nomlangan mavzular o'rin olgan. Mana shu mavzularni o'tish davomida o'qituvchi hozirgi o'zbek tilini geografiya fani bilan bog'lab ketishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Umumxalq so'zlashuv tili tarkibiga kiruvchi shevaga xos so'zlarni o'rganishda geografiya bilan hamkorlikda ish olib borish yaxshi samara beradi. Dars davomida o'qituvchi umumxalq so'zlashuv tili tarkibiga kiruvchi sheva va lahjalar haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi. Yangi tushunchalar haqida ma'lumot berish davomida o'qituvchi talabalarga sheva va lahjalarni bir-biridan ajratib turuvchi geografik maydonlarni kartalashtirishni uyga topshiriq sifatida beradi. Yoki hozirgi o'zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarga turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar va davlatlarning geografik joylashish maydonini kartaga tushirishni topshiriq sifatida berishi ham o'quvchilarning fanni o'rganishga bo'lgan intilishini va eng asosiysi o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarga turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar va davlatlarning geografik joylashish maydonini kartaga tushirishni topshiriq sifatida berishi ham o'quvchilarning fanni o'rganishga bo'lgan intilishini va eng asosiysi o'tarqalish joylarini kartalashtirish imkoni bor. Shunday ekan, o'zbek tili bilan geografiya o'rtasida qandaydir munosabat bo'lishi tabiiy. Bunday munosabat muayyan til hodisalarining tarqalish zonalarini belgilashda, lingvistik va dialektik atlaslar tuzishda, xaritalar tayyorlashda yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, "j" va "y" lashish xususiyatlariga ko'ra shevalarning farqlanishi va ularning tarqalish geografiyasini kartada belgilash;

hurmat ma'nosini ifodalashda -lar qo'shimchasining qo'llanilish doirasini aniqlash va uni kartaga tushirish;

1-shaxs ko'plik qo'shimchasi -vuz qo'shimchasining tarqalish o'rinlarini aniqlash va uni kartaga tushirish;

-yapti qo'shimchasini qaysi o'rinlarda, geografik joylarda o'zgarishini aniqlash va kartaga tushirish;

do'ppi, takya, kallapo'sh va shu kabi so'zlarning qo'llanilish hududlarini aniqlash va ularni kartada belgilash.

Ayniqsa, ona tili darslarida geografik atamalardan foydalanish har ikkala fanni o'zlashtirishga yaqindan yordam beradi.

Masalan, ona tili darslarida toponimlar va ularning turlarini o'quvchilarga o'rgatish asosida geografik tushunchalarni ham ular ongiga joylab borish mumkin.

Darslarda toponimlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish o'rinli bo'ladi:

1. Oykonimlar aholi yashovchi punktlar nomi. a) polisonimlar –shahar va shaharchalar nomi: Buxoro, Gazli, Samarqand, Urgench, Kosonsoy; b) komonimlar – qishloq nomlari: Yakkatut, Soybo'yi, Uchko'za, Gubalak, qoraquduq; v) xoronimlar viloyat, tuman, o'lka nomlari: Navoiy, Oltoy, Namangan, Sirdaryo.

2. Urbonimlar –shahardagi muassasalar nomi: Merkuriy do'koni, "Paxtakor" o'yingohi. Ona tili darslari jarayonida ana shu o'rganilgan mavzular bo'yicha senariylar yozdirish, ijodiy bayonlar tanlovlarni o'tkazish kabi ijodiy ishlar o'qituvchilarning Vatanga, elga bo'lgan mehr –muhabbatlarning yanada oshiradi, ular ongiga yuksak ijodiy fazilatlarini singdiradi.

Yurting, millatining taqdiri, mustaqilligini uluqlovchi Abdulla Qodiriy Oybek romanlarida esa o'quvchilar ona tili darslarida qo'shma gaplar, juft va takroriy so'zlar, shakldosh so'zlar qo'shma so'zlar, iboralar, umumlashtiruvchi bo'laklar, izohlovchi va boshqa so'z turkumlarini topib daftarlariga yozadilar, hamda ularning ma'nolarini izohlaydilar. Ana shu kabi ishlarning amalga oshirish orqali o'quvchilar ona tili fanidan o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Ona tili ta'limidagi bunday jarayon o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish va e'tiqodini qaror topdirishda, dars davomida

badiiy matnlardan foydalanishishning ahamiyati nechoqli katta ekanligini namoyon qiladi.

O`zbek tili –o`zbek halqining ma`naviy mulki. SHuning uchun ham o`zbek tilini davlat tili sifatida yanada rivojlantirish, uning asrlar osha saqlanib kelingan so`z boyligi, an`anaviy hususiyatlarini takomillashtirish, qo`llanish doirasini muntazam ravishda kengaytirib borish keng jamoatchilikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy yoshlarga murojaat qilib, tarixda nimaniki foydali narsalar yaratilgan bo`lsa, ularni hurmat bilan o`rganish, o`zlashtirish, asrash, ardoqlash, o`rni kelganda boyitishni aytib o`tganlar.

Haqiqatan ham tarixiy xotirasiz kelajakni tasaffur qilish mumkin emas. O`z o`tmishida, tarixini, qadryatlarini, urf –odatlarini yaxshi bilgan insongina mustaqilligimiz istiqbolini ko`ra oladi.

Ona tili darsligidagi “O`rin –joy nomlari va ularning imlosi” mavzusini o`tishda tarix va geografiya fanlari bilan bog`lab o`tish bu borada yaxshi natija beradi.

Joy nomlari, toponimlar turli davrlarda ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan bebaho xazinadir. O`qituvchi “O`rin –joy nomlari va ularning imlosi” mavzusini o`tish jarayonida o`quvchilarning o`zlari yashayotgan shahar, guzar, qishloq nomlari bilan bog`liq tarixiy faktlarni o`rganib kelishini oldindan vazifa sifatida topshiradi. So`ng ona tili mashg`uloti jarayonida ana shu to`plangan manbalar asosida matn yozish topshirig`i beriladi. O`quvchi matn yozish uchun ko`plab tarixiy manbalarga, rivoyatlarga murojaat qiladi. O`zi yashayotgan hudud haqida ma`lumotga ega bo`ladi va tarix, geografiya, o`lkashunoslikdan egallagan bilimlarini ona tili darsi davomida mustahkamlaydi. O`qituvchi tuzilgan har bir matnining bog`lanishli ekanligiga va o`quvchilarning ifodali o`qishlariga e`tibor beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.To`xliyev, M.SHamsieva, T.Ziyodova. O`zbek tili o`qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil
2. Jamolxonov X. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent. 2008. – 1-kitob.

3. Ziyodova T. Irgasheva G. Ona tilidan didaktik slaydlar to`plami. 5-sinflar uchun elektron o`quv qo`llanma, lotin yozuvida. Toshkent, 2005 yil, Kompakt disk, 446 Mbayt
4. Ziyodova T. Ona tili darslarida komp'yuterdan foydalanish. Kasb-hunar ta`limi jurnali, Toshkent, 2001 yil, 4-son, 16-17-betlar.
5. Ziyodova T. Ona tili darslarida elektron o`quv qo`llanmalaridan foydalanish texnologiyasi. O`TDA 8-yig'ini, Xorazm, 2005 y., 71-72-bet.
6. Ziyoyeva I. Jo`nalish kelishigidagi so`zlarning hol vazifasida kelishi Andijon, 1994, 310 – 332 – betlar.
7. M.Ahmedova. O`zbek tilini o`qitishda kompyuterdan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son, 73-75-betlar.
8. Mahmudov N. Til. – Toshkent: YOzuvchi, 1998. – 40 bet.
9. Mahmudov N., Nurmonov A. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1995. – 232 bet.
10. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O`zbekiston, 1992. – 110 bet.
11. Nematov X., Bozorov O. Til va nutq. –Toshkent: O`qituvchi, 1993. –32 bet.
12. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi.–Toshkent: Fan, 2008. –48 bet
13. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akadem nashr., 2010. – 112 bet.
14. Nurmonov A., Iskandarova SH. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 176 bet.
15. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – 292 bet.
16. O.Do`stmurodova. Ona tili ta'limining yangi texnologiyasida ta'lim maqsadi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 y., 1-son, 8-12-betlar.
17. Ona tilidan takomillashtirilgan DTS va o`quv dasturi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 5-son, 17-23-betlar.

18. Sobirova M. Interfaol dars mohiyati. Til va tarjima muammolari. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. T., «Fan» nashriyoti, 2007 y., 204-206-bet. .
19. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o`quvchi so`z boyligini oshirish. «Til va adabiyot ta`limi» jurnali, Toshkent, 1998 y. 1-son 29-30 betlar.
- Sobirova M. Ona tili darslarida komp'yuterdan foydalanishning ayrim